

FEATURES OF STUDYING LANGUAGE MEANS OF EXPRESSING MOTIVATION IN FRENCH, UZBEK AND RUSSIAN LANGUAGES

Aziza Arslonovna MUMINOVA

Doctor of Philology (DSc), Associate Professor
Department of General Linguistics
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan

FRANSUZ, O'ZBEK VA RUS TILLARIDA UNDASHNI IFODALOVCHI TIL VOSITALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Aziza Arslonovna MUMINOVA

F.f.d (DSc), dotsent
Umumiy tilshunoslik kafedrası
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

ОСОБЕННОСТИ ИЗУЧЕНИЯ ЯЗЫКОВЫХ СРЕДСТВ ВЫРАЖЕНИЯ ПОБУДИТЕЛЬНОСТИ ВО ФРАНЦУЗСКОМ, УЗБЕКСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКАХ

Азиза Арслоновна МУМИНОВА

Доктор филологических наук, доцент
Кафедры общего языкознания
Узбекский государственный университет мировых языков
Ташкент, Узбекистан azikamadi@mail.ru

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Muminova A.A. Fransuz, o'zbek va rus tillarida undashni ifodalovchi til vositalarining o'ziga xos xususiyatlari // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2025. — 11-jild, № 1. — B. 137-149.

<https://doi.org/10.36078/1742365133>

Received: December 24, 2024


Accepted: February 17, 2025

Published: February 20, 2025

Copyright © 2025 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Abstract. The article deals with the category of motivation. When an order and an order are given, the order, along with special lexical and grammatical forms denoting such impulses, is also presented by means of words denoting the object being prompted to act. These words are nouns, adverbs, and interjections. It also describes the theory of speech acts, analyzes pragmatic factors, and their influence on the content of the text. The category of motivation, which is expressed within the framework of reflecting the national culture in the units of languages, has similar and distinctive features in the compared languages. Similar and distinctive features in the expression of motivation are determined by national-cultural (linguoculturological) features. Stereotypes in the process of motivation are based on the nationality and mentality of the people. In the choice of linguistic units that express motivation, their belonging to any language is of great importance., for each nation has its own national and cultural values.

Keywords: category of motivation; text; advertising; modality; replica; linguoculturology; discourse.

Annotatsiya. Maqolada undash kategoriyasi haqida soʻz borgan boʻlib, u koʻp qirrali tushuncha ekanligi, hayotimizda, shu jumladan, ilm olamida ham mavjudligi keltirilgan. Ushbu kategoriya bir necha

bosqichlardan o'tib kelayotgan bo'lsa-da, hali ham o'z dolzarblik darajasini yo'qotgani yo'q. Muloqot paytida gaplar, jumladan foydalanilar ekan, albatta, gaplarning tuzilish jihatdan semantikasiga e'tibor qaratish lozim. Ular ko'zlangan maqsad tomon yo'naltiriladi va muloqot jarayonida so'zlovchining ijobiy yoki salbiy natijaga erishishida muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonda undash muhim omil hisoblanib, so'zlovchining ko'zlangan maqsadiga yetishiga yordam beradi. Undash kategoriyasini ifodalovchi til birliklarining lingvomadaniy xususiyatlari va ularni o'rganish turli milliy madaniyat va mentalitetga ega kommunikantlar o'z xohishi, istagi, ixtiyori va niyatidan kelib chiqib, tinglovchini biror harakatni amalga oshirishga undash nutqiy akti ijobiy yoki salbiy yakun topish omillarini ochish imkoniyatini beradi. Undash tushunchasi imperativ kategoriyasi bilan bog'liq. Imperativ semantikasi undashning ma'noviy qismidir. Imperativ grammatik kategoriya bo'lib, u undash usullaridan biri. Undash kategoriyasi nihoyatda keng hisoblanib, individning ko'zlangan maqsadiga yetishiga yordam beradi. Bunda undashni ifodalovchi til birliklarining lisoniy, pragmatik, lingvomadaniy va h.k. xususiyatlari alohida o'rin egallaydi. Undashdagi stereotiplar xalq milliyligi va mentalitetiga asoslangan bo'ladi.

Kalit so'zlari: undash kategoriyasi; matn; modallik; replika; lingvomadaniyat; diskurs.

Аннотация. В статье рассматривается категория побуждения. Когда отдается приказ или распоряжение, сема приказа наряду со специальными лексическими и грамматическими формами, обозначающими подобные побуждения, преподносится также посредством слов, обозначающих объект, побуждаемый к действию. В качестве таких слов выступают имена существительные, наречия и междометия. Также рассказывается о теории речевых актов, анализируются прагматические факторы, их влияние на содержание текста. Категория побуждения, которая выражается в рамках отражающих национальную культуру в единицах языков, имеют сходные и отличительные черты в сравниваемых языках. Сходные и отличительные особенности в выражении побуждения обуславливаются национально-культурными (лингвокультурологическими) особенностями. Стереотипы в процессе побуждения основываются на том, каковы национальность и менталитет народа. В выборе языковых единиц, выражающих побуждение, большое значение имеет их принадлежность к какому-либо языку. Ибо каждая нация имеет свои национально-культурные ценности.

Ключевые слова: категория; побуждения текст; модальность; реплика; лингвокультурология; дискурс.

Kirish

Undash ko'p qirrali tushuncha bo'lib, hayotimizda, shu jumladan, ilm olamida ham mavjud. Bu tushuncha bir necha bosqichlardan o'tib kelayotgan bo'lsa-da, hali ham o'z dolzarblik darajasini yo'qotgani yo'q. Muloqot paytida gaplar, jumladan foydalanilar ekan, albatta, gaplarning tuzilish jihatdan semantikasiga e'tibor qaratish lozim. Ular ko'zlangan maqsad tomon yo'naltiriladi va muloqot jarayonida so'zlovchining ijobiy yoki salbiy natijaga erishishida muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonda undash

muhim omil hisoblanib, soʻzlovchining koʻzlagan maqsadiga yetishiga yordam beradi.

Undash mustaqil kategoriya sifatida kommunikativ semantik tus va oʻz tuzilmasiga ega. Undash kategoriyasining tuzilmasi, A. Y. Maslova fikricha, mazmun, olib uzatish va ifoda jihati hamjihatligidan iborat. Mazmun tomoni kommunikativ pragmatik va semantik tarkibiy qismlardan, olib uzatish plani undash maʼnosini aks ettiruvchi til birliklari maydonidan, ifoda jihati esa fonologik, intonatsion va grafik qismlardan tashkil topgan [Maslova 2009: 7]. Taʼkidlab oʻtish lozimki, undash alohida kategoriya boʻlishiga qaramasdan, modallikka koʻp jihatlari bilan bogʻliq va oʻxshash, chunki undash modallik zahirida shakllanib yuzaga kelgan, biroq undan ajralib turadigan xususiyatlarga ega kategoriyadir. Modallik kategoriyasi kabi undash kategoriyasi ham oʻz mazmun va ifoda tizimiga ega. Undashni ifodalovchi til birliklari xilma-xil, tilning barcha jabhalarida namoyon boʻlishi mumkin. A. Y. Volkovning taʼkidlashicha, undashni amalga oshirishda tinglovchining xohish-istagiga soʻzlovchi oʻz taʼsir kuchini oʻtkazishi mumkin. Ammo uning ichki kechinmalari bundan mustasnodir. Undash kommunikativ kategoriya sifatida tushuniladi va adresantning adresatga boʻlgan undashini anglatadi [Volkova 2011: 23].

Asosiy qism

Undashni ifodalash imperativ kategoriya bilan bogʻliq boʻlib, ularni bir qator olimlar sinonim deb hisoblashadi. E. V. Lobanovning yozishicha, XX asr oʻrtalarida bu muammoga qiziqish kuchayib, bir qator tadqiqotchilar shu kabi ishlarni olib tahlilga torta boshlashgan. Ularni “imperativ”, “buyruq mayli” (“povelitelnoye nakloneniye”) hamda “undov gap” (“pobuditelnoye predlojeniye”) orasidagi farqlar qiziqitira boshlagan. “Imperativ” va “buyruq mayli” sinonim, lekin “undash tushunchasi” termini imperativ terminidan anchagina kengroq [Lobanova 2011: 15].

Rus tili grammatikasida hali-hanuzgacha “imperativ” va “undash” tushunchalari orasida farqlar borligi aytilsa-da, undashning ekvivalenti sifatida imperativ termini qoʻllanilishi ham uchraydi.

Undash — imperativning nutqdagi ifodasi, imperativ formaning mazmuniy tomoni, undash ifodasining yaqqol turi (iltimos, maslahat, taklif, buyruq va b.). Imperativning oʻz elementlari, yoʻnalishlari mavjud. Imperativ semantikasi undashning maʼnoviy qismidir. Adresantning tinglovchiga murojaati, xitob qilish va fikrni jalb etishi imperativning asosidir. Imperativ grammatik kategoriya boʻlib, undashni amalga oshirishda muhim omil hisoblanadi. Undashni ifodalovchi til birliklari bilan uning maqsadi bir xil boʻlib, insonni biror-bir narsaga undashni amalga oshiradi [Surjenko 2012: 18].

Imperativ semantikasi murakkab. Undashni ifodalashda adresantning reaksiyasi muhim hisoblanadi. Imperativning yana bir boshqa komponenti sifatida xohish ishlatiladi. Ish-harakatni amalga oshirishdagi imperativ formasi soʻzlovchi va tinglovchi orasidagi ish-harakatni birgalikda bajarishga moyilligini bildiradi. Imperativ turli maʼnolarni ifodalashi mumkin (iltimos, oʻtinch, pand-nasihat, oʻgit, yoʻl-yoʻriq, ruxsat, ogohlantirish, amr, maslahat, topshiriq, buyruq, taqiq) [Nazari 2012: 8].

Demak, zamonaviy tilshunoslikda undash va imperativ tushunchalari sinonim hisoblanadi.

Undashning rus tilshunosligida o'rganilishini uch davrga bo'lish mumkin:

1) birinchi davr — M. V. Lomonosovdan A. A. Shaxmatovagacha bo'lgan davr. Bu davrning asosiy yondashuvi tilning obyektiv tomoniga qaratilgan bo'lib, bunda undashning maxsus morfologik tomoni va buyruq mayli o'rni o'rganilgan;

2) ikkinchi davr — A. A. Shaxmatovdan V. V. Vinogradovgacha bo'lgan davr. Bu davr XX asr 70-yillar oxiriga qadar davom etgan. Bunda e'tibor tilning subyektiv tomoniga qaratilgan bo'lib, undashning leksik, sintaktik hamda intonatsion tahlillari amalga oshirilgan;

3) uchinchi davr — XX asr 70-yillar yakunidan to hozirgi vaqtgacha davom etib kelayotgan davr. Tadqiqotchilar diqqatini ekstralingvistik omillar o'ziga jalb qilgan holda, undashning yangi tushunchasi, ya'ni nutq aktiga e'tibor qaratilmoqda.

S. Saransasral undashni o'rganib, uni ikki turga ajratgan:

1) birinchi turida XX asr o'rtalarigacha murojaat qilinib, u so'zlovchi tomonidan ahamiyatga molik bo'lmagan;

2) ikkinchi tur esa 70–80-yillarga to'g'ri kelib, tilning yangicha konsepsiyalari paydo bo'ldi, so'zlovchi va tinglovchisiz undash jarayoni semantikasi ahamiyatsiz, deya baholangan.

O'zbek tilshunosligida undash tushunchasini ifodalashda undov atamasidan ham foydalaniladi.

Undov atamasi quyidagi ma'nolarda qo'llaniladi:

undov — so'z turkumi;

undov — gap turi;

undov — kategoriya.

Fransuz va rus tilshunosligida undash, asosan, modallikning turi yoki alohida kategoriya sifatida tushuniladi. Undov so'z turkumi fransuz tilshunosligida *l'interjection* atamasi, rus tilshunosligida esa *mejdometiye* atamasi bilan beriladi. Undov gaplar esa mazmun jihatdan fransuz tilshunosligida *imperatif* va *l'interjection* atamaları, rus tilshunosligida esa *pobuditelnoye predlojeniye* va *vosklitsatelnoye predlojeniye* atamaları bilan bevosita farqlanadi.

Undov so'z turkumi sifatida. Odatda, undov so'z turkumi sifatida qaraladi: "Maxsus ekspressiv semantik ma'no, ya'ni his-hayajon, buyruq-xitob ifodalash uchun ishlatiladigan so'zlar undov deb ataladi. Undovlar boshqa so'z turkumlaridan turlanmasligi, maxsus grammatik ko'rsatkichlarga va mustaqil so'zlar kabi atab ko'rsatish xususiyatiga ega emasligi bilan farqlanadi".

So'zlovchining tinglovchiga murojaati, xitob qilish va fikrni jalb etish kabi ma'nolarni undov so'zlar ifodalaydi.

Undovlar har bir insonning tashqi olam bilan munosabati natijasida yuzaga keladi va his-hayajonni, uning xohish va istagini, quvonch va qayg'usini, azob va nafratini, talab va buyruq singari ruhiy holatlarini ifoda etuvchi so'z turkumi desak mubolag'a bo'lmaydi. Undov so'zlar semantik hamda funksional xususiyatlariga qarab ikki katta guruhga ajratiladi:

1) his-tuyg'u undovlari;

2) buyruq-xitob undovlari.

Grammatik belgilariga ko'ra undov so'zlar mustaqil so'zlarga va semantik xususiyatiga ko'ra modal so'zlarga yaqindir. Ammo undov so'zlar boshqa so'z turkumlaridan o'z semantik hamda grammatik tabiati bilan ajralib turadi.

Undov so'zlar genetik xususiyatiga ko'ra asl va yasama undovlarga bo'linadi. Asl undovlar insonning his-hayajonini, psixologik dunyosidan kelib chiqqan holda emotsional tuyg'ularini ifodalash vositasi sifatida paydo bo'lgan so'zlardir. Ular boshqa so'z turkumlaridan yuzaga kelmagan sof undovlar sanaladi: a, o, eh, he, ho, ey, eha, ha, oh, voy, voh... Yasama undovlar boshqa so'z turkumlaridan ayrim leksik birliklarining undovga ko'chishi natijasida vujudga kelgan. Undovga ko'chgan so'z o'zining oldingi ma'nosini yo'qotadi va insonning emotsional dunyosi, tashqi muhitdan ta'sirlanishidan yuzaga keluvchi talabi, xohishi, buyruq va ta'kidi, shodlik va g'azabi singari tuyg'ularni ifoda etish uchun xizmat qiladi: Yo rabbiy, yo xudo, yo Olloh, balli, ofarin, salom, afsus, barakalla.

Undov so'zlarga xos muhim belgi ularning gap bo'laklari bilan sintaktik aloqaga kirishmasligidir. Undov so'zlar, ko'pincha, gap boshida keladi va so'zlovchining gap mazmuni bilan aloqador emotsional kayfiyatini ifoda qiladi.

Undov so'zlarning ko'pchiligini his-tuyg'u undovlari tashkil etadi. Ular so'zlovchining tashqi olamga, suhbatdoshga bo'lgan ijobiy yoki salbiy munosabati, zavqlanishi, xayrixohligi, ta'sirlanishi natijasida yuzaga keluvchi ruhiy kechinmalarini ifodalaydi. Undovlar taajjub, tashakkur va rag'batlantirish, hayratlanish, zavqlanish, shodlik, mamnunlik, orzu-umid, achinish, muhabbat, kinoya, g'azab, norozilik, nafrat, qo'rqish kabi ma'nolarni tinglovchiga yetkazishda faol qatnashadi va emotsional tuyg'uni to'la-to'kis yetkazishga xizmat qiladi. Ularni intonatsiya yordamida turlicha yetkazish mumkin. *Oh, qanday go'zal bahor. Oh, zolim falak* (Uyg'un). Ushbu berilgan gapda ikkita undovning ma'nosi ikki xil. Birinchi gap xursandchilik, rohatlanish ma'nosini bildirsa, ikkinchi gapda u norozilik his tuyg'usini beradi.

Undovlarning ma'nosini yetkazib berishda mimikaning ham o'z o'rni mavjud. Masalan: *Kelinjon, bay-bay-bay, bunaqangi somsani yemaganimga necha yil bo'ldi*-ya (og'zaki nutqdan). Ushbu gapda so'zlovchining mimikasida xursandchilik ifodasi bo'lishi mumkin. Ammo shu misol orqali yuzini burishtirsa, piching ifodasi, ya'ni so'zlovchining yuz ifodasida norozilik alomati kelib chiqishi tayin.

Shu jihatdan undovlar modal so'zlar bilan yaqindir. Ammo ifodalaydigan ma'nosiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Undovlar so'zlovchining turli his-hayajonini ifodalaydi, modal so'zlar esa fikrning aniqligi-noaniqligini ifodalab, baholab keladi va gapni intellektual tomondan shakllantirishga yordam beradi.

Shunisi e'tiborga loyiqki, undovdan *-la* affiksi bilan yasalgan fe'llarda ham his-hayajon, buyruq-istak kabi ma'nolar saqlanib qoladi. Masalan: *kisht* — *kishtlamoq*. Shunday qilib, undov so'zlar insonning his-hayajoni va biror-bir narsaga munosabatini ifodalab keladi.

Xo'sh, undov so'z turkumidagi so'zlarning undash kategoriyasiga nima aloqasi bor? Nima sababdan undash va undov so'zlari sinonimlar sifatida qo'llaniladi? Gap shundaki, ba'zi hollarda undov so'zlar undash

ma'nosini kasb etadi. Undovlar insonlarning nafaqat his-tuyg'ularini, balki buyruqlarini, chaqirish ma'nolarini ifodalab beradi.

Undovlar anglatgan ma'nolariga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

- 1) emotsional undovlar;
- 2) imperativ undovlar.

Undovlarning katta qismini emotsional undovlar tashkil qiladi. Ularning ma'nosi kontekstda reallashadi. Ular zavqlanish, mamnunlik, kuyish, xursandchilik, achinish, rahm-shavqat, huzur, ajablanish, hayratlanish, minnatdorchilik, tashakkur, shodlanish, e'tiroz, jirkanish, pushaymon, alam, g'am-qayg'u, musibat, zorlanish, nolish, shikoyat, kulfat, dard, zarda, nafratlanish, dahshat, tanbeh, vahima kabi turli ma'nolarni ifodalaydi.

Sen ahmoqsan! — dedi Asadbek ovozini ko'tarib. Shu gapni aytgunicha indamay turdingmi? Urrib, og'zini yorib yubormadingmi?

Voy, adasi... [Tohir 1998: 108].

Bir oz nima qilarini bilmay talmovsirab turdi-da, so'ng "Voy aylanay sendan", deb ichkariga boshladi.

Oyi, hadeb kirib chiqavermang. Qo'rqmang, endi o'zimni o'ldirmayman.

Voy, bolam, deb uning gapini bo'ldi Manzura.

Voy o'layin, voy o'layin, chaqaloqni ham tashlab ketadimi?

Voy, bolam-yey, sal kech kelibsiz-da. Joy boridi, odam qo'yib qo'ydik [Ustinova 2005: 120].

Imperativ undovlar ikki guruhga bo'linadi:

- 1) odamlarga qaratilgan undovlar;
- 2) hayvon va jonivorlarga qaratilgan undovlar.

Odamlarga qaratilgan undovlar (hoy, ey, oy, hey, allo) insonlarning diqqatini so'zlovchiga tortish uchun xizmat qiladi. Ba'zilar esa (ma, marsh, tss, bos, qani, jim, tek) biror nimani buyurish yoki ta'kidlash ma'nosida qo'llanadi. Masalan: *Marjonoy beixtiyor qadamini tezlashtirdi, biroq xuddi shu payt:*

— Hoy kelinposhsha! — degan tanish, do'rilloq ovozni eshitib, yuragi uvishib to'xtadi.

— O'rtoqlar. Gapimga quloq solinglar, o'rtoqlar!

— Tss...

— Jim!

Eshitaylik, birodarlar! [Yoqubov 2005: 98].

Hayvon va boshqa jonivorlarga qaratilgan undovlar (tu-tu, chuh-chuh, beh-beh, dirr, tak, xo'sh, ish, gah, kish-kish) chaqirish, to'xtatish, haydash, tinchlantirish uchun xizmat qiladi. Masalan: *— Chuh, eshagim! — deb xala bosaman, eshagim yana yo'rtib ketadi.* Ko'rib turganimizdek, undov so'z turkumidagi so'zlar his-hayajon bilan bir qatorda undash ma'nosiga ham ega bo'lishi mumkin.

Undov gap turi sifatida. O'zbek tilshunosligida undov so'zlar bilan bir qatorda undov gaplar atamasi ham ishlatiladi. Undov gaplar har doim ham biror-bir harakatga undab kelmaydi. Ko'p hollarda nutq egasining emotsional holatini bildiradi: *Qanday go'zal bu olam! Hayot qanday shirin-a!*

Vaholanki, bevosita tub ma'nodagi undovlar, ya'ni biror-bir harakatga undovchi gaplar ham o'z tabiatiga ko'ra xilma-xildir, ular ham emotsional holatda amalga oshirilishi ehtimol. Bir shakldagi undash birdan ortiq tuyg'uni bildirishi mumkin. Masalan:

Voy, buvim keldilar, oyimni tez chaqiring (shodlik).

Voy, boshim og'ridi, dorimni olib bering (kasallikni ta'kidlash).

Voy, shoshmang, diydoringizga bir to'yvolay (Said Ahmad) (xohish-istak).

Voy, qo'ysang-chi uningni, olib kelishini aytgandim, unamadi (ishonchsizlik).

Voy, yiqilib ketaman, qo'limdan ushlang (qo'rqinch).

Bu kabi holatlar undalmalarni ma'lum semantik prinsip asosida qat'iy tasniflashni qiyinlashtiradi.

Demak, muayyan bir undovning ifodalaydigan ma'nosi kontekstda reallashadi.

Undov gaplarga nisbatan undov belgisi qo'llanilishi mumkin. Undov belgisi ham undov gaplar, ham buyruq gaplar oxiriga qo'yiladi. Undov belgisining qanday ma'no-mazmun uchun ishlatilganligi berilgan matndan bilinadi.

Undov belgisining qo'llanilishi:

1. His-hayajon gaplar oxiriga qo'yiladi: *Voy, adasi sizga nima bo'ldi!*

2. His-hayajon bilan aytiladigan undalma, buyruq gap, vokativ gap bo'laklarga bo'linmaydigan so'z gaplardan keyin qo'yiladi: *Hamzat! Hayotda kechikmaslik muhim, juda muhim!*

3. His-tuyg'u bilan aytilgan sof so'roq yoki ritorik so'roq gaplarda ham so'roq, ham undov belgisi birgalikda ishlatiladi: *U shiftga bir lahza tikilib yotdi-da, o'ziga tasalli berdi. Nima bo'пти?! Qizlar ham mard yigitlarni yaxshi ko'radi. O'sha lattadan kam joyim bormi?!*

Shunday qilib, undov gaplar atamasi his-hayajonni bildiruvchi gaplarga va bevosita buyruq yoki boshqa undash ma'nolariga ega gaplarga nisbatan qo'llanilishini kuzatishimiz mumkin.

Undov kategoriya sifatida. Undovni kategoriya sifatida o'rganar ekanmiz, ta'kidlash joizki, yuqorida ko'rib chiqilgan undov so'zlar va undov gaplardan faqatgina undash ma'nosini anglatib kelganlari undash kategoriyasiga tegishli til birliklaridir, ular ushbu kategoriyaning ifodalovchi vositalardan biri hisoblanadi.

Undash kategoriyasi o'zining mazmun va ifoda jihatiga ega. Chunonchi, undashni amalga oshirishda adresatga murojaat qilinib, nutqni ravon va teran yetkazishda uning turli semantik-pragmatik ma'nolari ro'yobga chiqariladi. Shu bois undash kategoriyasi semantik, grammatik, pragmatik va sh.k. yondashuvlar asosida o'rganiladi.

Undashning semantik planida adresat mentalitetidan kelib chiqqan holda so'zlovchining murojaati ifodalanadi, vaholanki shaxs biror-bir tushunchani anglab yetishda o'z mentalitetiga tayangan holda tasavvurga ega bo'ladi. Undashning grammatik planida esa so'zlovchi muloqot jarayonida eng to'g'ri usulni tanlab undashni amalga oshiradi.

Undashning pragmatik planida muloqot jarayonida so'zlovchining adresatga yo'llagan murojaati tushuniladi. Undash pragmatik yondashuv tomondan yaqqol ko'zga ko'ringan semantik-pragmatik kategoriya hisoblanib, u nafaqat til, balki olam manzarasining holatlari hamda nutq

muloqotiga bog'liq hodisadir. Shundan kelib chiqqan holda nutq akti o'zida undash jarayonini qamrab oladi. Doimiy yondashuvdan farqli ravishda pragmatik yondashuv o'z ichiga bevosita va bilvosita nutq aktlarini oladi.

Sh. Safarov: "Muloqot so'zlovchiga ta'sir o'tkazish, uni biror javob harakatiga undash uchun bajariladi... muloqotga kirishayotgan shaxsning asosiy maqsadi axborotni uzatish emas, balki tinglovchini ushbu maqsadni anglashga undashdir" [Safarov 2008: 153], — deya ta'kidlaydi. Umuman olganda, so'zlovchi adresatga undash orqali biror-bir ishni boshlashga, to'xtatishga yoki davom ettirishga amr qiladi. Bunda, K. S. Neustroyevning ta'kidlashicha, undash uch ko'rinishda bo'lishi mumkin [Neustroyev 2008: 5]:

1) buyruq (order): muallif rahbarning buyrug'i deya ko'rsatib, unga og'zaki buyruq (order), ko'rsatma (command), direktiv (directive), buyurtma (order), taqiq (prohibition), ruxsat (permission), qo'llanma (instruction/ instructions), farmoyish (prescript) retsept 1 (prescription) va retsept 2 (recipe) ni kiritgan;

2) maslahat (advice): u yoki bu vaziyatda maslahat berish, o'z fikrini bildirish, tavsiya etish (recommendation), taklif 1 (suggestion), taklif 2 (proposal), taklif 3 (proposition), taklif 4 (offer), ishontirish (persuasion), yana qo'shimcha sifatida ogohlantirish (warning), xabardor qilish (caution), tahdid (threat), do'q qilish (blackmail) va pand-nasihat/o'git (admonition);

3) qat'iy iltimos (request): a) talabli iltimos (demand) chaqiriq 1 (call), chaqiriq 2 (appeal), taklif (invitation); b) o'tinchli yalinish ohangida iltimos (supplication), afsun, jodu 1 (entreaty1), afsun, jodu 2 (entreaty2).

Bizning nazarimizda, K. S. Neustroyevning tasnifi undash ko'rinishlarini o'z ichiga to'liq qamrab olmagan.

E. I. Belyayevaning fikricha, undash uch asosiy qismga bo'linadi [Belyayeva 1988]:

1) preskriptiv (adresatga ish-harakatni amalga oshirishni buyuruvchi gap jumlarlar);

2) rekvestiv (so'zlovchi manfaatini ko'zlab bajariladigan ish-harakatni amalga oshirishga undovchi gap jumlarlar);

3) suggestiv (maslahatni ifodalovchi gap jumlarlar).

Preskriptiv undashlarga buyruq, farmoyish, ruxsat, taqiq, yo'l-yo'riq; rekvestiv undashlarga iltimos, o'tinch, taklif; suggestiv undashlarga esa maslahat, tavsiya va ogohlantirish kiritiladi.

Til nafaqat xabar beruvchi, undovchi omil, balki xabarni qay tarzda yetkazishda ham alohida ahamiyat kasb etadi. Tilda qayd etilgan olam haqidagi bilimlar aniq lisoniy qarashlar va milliy-madaniy xususiyatlar asosida bu tilda so'zlashuvchilarning mental olamini shakllantiradi, ya'ni shaxsning hayot lisoniy manzarasi haqidagi tasavvuri paydo bo'ladi, u haqidagi bilimlari yaratiladi va jamlanadi. Til olamning lisoniy manzarasini shakllantirishda ikki jarayonda bevosita ishtirok etadi: uning negizida olam manzarasi shakllanadi; tilning o'zi olamning boshqa manzaralarini izohlaydi, ular maxsus leksika yordamida tilga kirib keladi va unga o'zga madaniyat jihatlarini ham olib kiradi.

Demak, til odamlarning olam bilan bog'liq tasavvurlari va bilimlarini shakllantiruvchi hamda saqlab keluvchi muhim quroldir. Tilda millatning barcha sifati namoyon bo'ladi. Til orqali u olam manzarasini

izohlaydi. Olam manzarasini tahlil qilish esa insonning uni qanday qabul qilishi, o'z madaniyati miqyosida tushunishi, aniqlashiga bog'liq. Olamning manzarasi tilda o'z aksini topadi, sekin-asta shakllanadi. Shu bilan birga, inson olam manzarasini qabul qilibgina qolmay, uni o'z emotsiyalari bilan boyitadi ham. Olamning cheksiz rang-barangligi va yaxlitligini aks ettiruvchi lisoniy olam manzarasi uni tashkil etuvchi birliklarga, ularning holati, bir-biri bilan bog'liqligiga ishora qiladi. Shunga binoan, olamning lisoniy manzarasi uning qanday tarkib topganini ko'rsatadi.

N. Y. Shvedovanning ta'kidlashicha, olamning lisoniy manzarasi "xalqning asriy tajribasi orqali ishlab chiqilgan barcha mavjud narsalarni yaxlit va ko'p qismli olam ko'rinishida, til orqali anglanadigan qismlararo aloqalar va tuzilishlarda namoyon bo'luvchi ifodalashni, ya'ni birinchidan, inson va uning moddiy hamda ma'naviy hayot faoliyatini, ikkinchidan, uni o'rab turgan barcha narsalar: makon, zamon, tirik va o'lik tabiat, inson o'zi yaratgan afsona va sotsiumlarni lisoniy nominatsiyalar yordamida amalga oshirish demakdir" [Shvedova 199: 3].

Olamning lisoniy manzarasi atrof-borliqdagi predmetlar, voqea-hodisalarni til vositalari orqali o'zaro bir-biri bilan bog'liq holda, yaxlit va rang-barang ko'rinishlarda ifodalaydi. Olam obrazi va olam manzarasi orasidagi farq ustida to'xtalib, A. E. Mamatov: "Olam obrazi bu — shaxs tushunchasining konseptual tizimi, qaysiki mentallik asosida izohlanadi, olam manzarasi esa aynan olam obrazi, chunki u til orqali beriladi" [Mamatov 2007: 9], — deydi. Bu fikrga qo'shilgan holda, lisoniy olam manzarasi insonning olamga (tabiat, hayvonlar, dunyo unsuri sifatidagi o'ziga) nisbatan turli munosabatlarini shakllantirishini va aynan u odamning olamdagi xatti-harakatlari, xulq-atvori me'yorlarini, olam bilan o'zaro munosabatlarini belgilashini yana bir bora ta'kidlab o'tishga to'g'ri keladi.

Olam manzarasi inson dunyoga kelib, o'sib-ulg'ayishi bilan birga shakllanadi va rivojlanadi. Olam manzarasi inson hayot faoliyatini boshqaruvchi tasavvurlar majmui, inson ongi, psixikasi bilan bog'liq; u odamlarning xulq-atvori, madaniyati kabilarda ham o'z ifodasini topadi. Har bir til dunyoni o'ziga xos ravishda ko'radi va uning tashuvchisi o'z jumllarini mazmunan shu manzaraga muvofiq ravishda tuzishi va yaratishi kerak bo'ladi.

Bu holat to'laligicha undash kategoriyasi va uni ifodalovchi til birliklariga ham tegishlidir. Undash kategoriyasi milliy madaniyatni o'zida aks ettiruvchi turli tizimli tillar doirasida o'z ifodasini topar ekan, u o'zining o'xshash va farqli tomonlari bilan ajralib turadi. Undash ifodasidagi o'xshash va farqli tomonlar, o'z navbatida, tilning milliy-madaniy (lingvomadaniy) xususiyatlari bilan belgilanadi. Undashni ifodalovchi til birliklarining madaniy xususiyatlarini tadqiq etishda, demak, lingvomadaniyatshunoslik, madaniyat, mentalitet, olam manzarasi, olamning lisoniy manzarasi kabi atamalar alohida ahamiyat kasb etadi. Fransuz, o'zbek va rus tillarida undash kategoriyasini ifodalashda turli til vositalari (fonetik, leksik, grammatik) ishtirok etadi. Fonetik vositalar orasida undashni ifodalashda ohang muhim rol o'ynaydi. Aynan ohang o'zgarishi, uning intensivligi qiyoslanayotgan har uchala tilda ham undashning turli xil ma'no ottenkalarini yetkazib berishda alohida

ahamiyat kasb etadi va bunda adresantning adresatga munosabati, uning nutq madaniyati, milliy qadriyatlarining negizi namoyon bo'ladi.

Masalan, ohang intensivligi o'zgarishi natijasida quyidagilarni kuzatish mumkin:

— darak gap buyruq gap tusini oladi:

Nous avons marché le long de la Seine, qui n'est pas vraiment droite

— *Regarde* [Jean 2009: 25].

— *Qasam ichmang. Kasalxonaga yotqizganingizdan so'ng, menga xabar bering. Tanishingiz bormi yo biz aralashaylikmi?* [Yoqubov 2005: 108].

Положив трубку, он сказал:

— *Идите собирайтесь. Сам начальник РУВД с вами пойдём* [Donsova 2005: 55].

Ohang berilayotgan buyruq undashining intensivligini belgilab beradi:

— *Venez vite remplir la pense, avait-il dit en désignant la tente de la main, sur le pont arrière* [Michel 2005: 18].

— *Bratishka, hozir paxaningning og'aynisinikiga borasan. Oti nimaydi, Hasanmi?*

— *Вон отсюда!* — закричал Будкин рванным фальцетом [Topilskaya 2003: 330].

— *Что-о?* — тут я уже возмутилась.

Ohang iltimosning bir necha ko'rinishini farqlaydi:

— *Je vous prie d'excuser mon accueil peu... cordial, mais, voyez vous, le maître est riche et on ne se montre jamais assez méfiant* [Éric-Emmanuel 2001: 33].

— *Suyun aka! Ayting, jon Suyun aka! Qanaqa ayb? Qanaqa tuhmat? Nahot mendan, o'z jufti halolingizdan yashiradigan siringiz bo'lsa?*

— *Мы попросились и вышли в коридор. Дойдя до лифта, я сказала Леньке, что я забыла поставить печать на справку.*

— *Я сейчас, подожди меня тут две минуты, — и, повернувшись на каблучках, побежала к кабинету номер 898.*

Ohang undashdagi qat'iylikni yumshatishi va neytral jumalarga qat'iylik tusini berishi mumkin:

Naqia finit par avoir pitié de lui et proposa:

— *Dites-nous où c'est. Nous continuerons seule.*

— *Siz xotirjam bo'ling, narsalariga tegmayman. Tegsam, xudo ursin!*

— *Милая девочка, — Пруткин перегнулся ко мне через стол. — Давайте ближе к делу. Я эти душещепательные разговоры много раз слышал и нечего с них не поимел.*

Ohang to'g'ri tanlanishi undash jarayoniga xushmuomalalikni olib kirishi mumkin:

Derrière la porte, rien n'avait bougé.

— *Frappe encore, répondit Naqïa. Vu la taille de la bâtisse, si quelqu'un nous a entendus, il faut lui donner le temps de venir ouvrir* [Maalouf 1988: 58].

Meni eshit, qizlik uy bozor, bolam! Shoh ham keladi, gado ham. Boshingda otang bo'lmasa. Munosib joyingni topgin, deyman-da qizim.

— *Мария Сергеевна, есть очень интересная информация, сейчас к вам подъедут коллеги из ФСБ, указание начальника следственного управления — вам подключиться, разработайте совместно с ними план мероприятий и выполните необходимые следственные действия.*

— *Maslahat undashini yetkazishda ohang nutqqa xushmuomalalik va mulozamatlilik beradi:*

— *Rappelle-toi, on ne tourne jamais le dos au souverain. Quand tu repartiras pense à t'en aller en reculant.*

— *O'g'lim! — dedi u allaqanday yolvorib. — Mabodo yoshlik qilib, har xil xomxayollarga borib yurmanglar. Hukumat bilan hazillashib bo'lmaydi.*

— *Машечка, я чего хотел-то: может, пугнуть его немножко?*

Нам-то в больницу лучше не соваться, а вот ты бы съездила, переговорила бы с лечащим врачом, справочку бы взяла, даже с ним не надо беседовать.... [Ustinova 2005: 230].

Xulosa

Demak, yozma nutqda ham undashning o'rni bor, lekin bunda undashni amalga oshirish murakkabroq. Undashning keng foydalaniladigan, ya'ni yozib ifoda etiladigan shakli: yo'l-yo'riq, chaqiriq, qaror va e'lonlardir. Umuman olganda, fransuz, o'zbek va rus tillarida undash kategoriyasini ifodalovchi til birliklarini qanday qo'llash muloqot vaziyatlari bilan bevosita bog'liq. Muloqot vaziyati undash kategoriyasini ifodalovchi til birliklarining funksional-semantik va uslubiy jihatlari bilan birgalikda ularning ijtimoiy va milliy-madaniy xususiyatlarini inobatga olishni ham taqozo qiladi.

Shunday qilib, undash tushunchasi jahon va o'zbek tilshunosligida o'xshashlik va o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. O'xshashligi undash kategoriya sifatida qaralishi bo'lsa, o'ziga xosligi o'zbek tilshunosligida undash atamasi bilan bir qatorda undov atamasi qo'llanib, u omonimik ma'nolarda, jumladan, undov — so'z turkumi, undov — umuman, hishayajonni ifodalovchi gap turi sifatida tushunilishidadir. Xulosa qilib aytganda, undash jarayonida adresantning ijobiy natijaga erishishi, ya'ni adresatning uni xush ko'rishi va unga ishonch bildirishi xushmuomalalik me'yorlariga bevosita bog'liq. Turli tizimli tillarda xushmuomalalik me'yorlari o'xshash va o'ziga xos milliy-madaniy xususiyatlarga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Беляева Е.И. Модальность и прагматические аспекты директивных речевых актов в английском языке: автореф. дисс. ... докт. филол. наук. — М., 1988. — 33 с.
- Волкова А.Е. Импликация семантики побудительности в составе высказываний с непрямой формой побуждения // Вестник Волгоградского гос. ун-та. Серия 2, Языкознание. — 2011. — №1 (13). — С. 21–27.
- Лобанова Е.В. Средства выражения побудительности в английском языке: когнитивно-онтологический подход: автореф. дисс. ... канд. филол. наук. — Самара, 2011. — 24 с.
- Маматов А.Э. Языковая картина мира как когнитивный феномен // Хорижий тил таълимининг когнитив-прагматик тамойиллари. — Самарқанд, 2007. — Б. 9–10.
- Маслова А.Ю. Коммуникативно-семантическая категория побудительности и ее реализация в славянских языках (на материале сербского и болгарского языков в сопоставлении с русским): автореф. дисс. ... докт. филол. наук. — М., 2009. — 40 с.
- Назари Фатиме. Способы выражения побуждения в современном русском языке: автореф. дисс. ...канд. филол. наук. — М., 2012. — 20 с.
- Неустроев К.С. Способы выражения побуждения и воздействия (на материале современного английского языка): автореф. дисс. ... канд. филол. наук. — Ростов-на-Дону, 2008. — 22 с.
- Сафаров Ш. Паралингвистика. Монография. — Т., 2008. — 280 б.
- Сурженко Е.В. Императив как грамматическое поле в системе побудительности (на материале английских пословиц) // Вестник БДУ. — Сер. 4. — 2012. — №1. — С. 62–65.
- Шведова Н.Ю. Теоретические результаты, полученные в работе над «Русским семантическим словарем»// Вопросы языкознания. — 1999. — № 1. — С. 3–16.

Источники

- Schmitt Éric-Emmanuel. Monsieur Ibrahim et les Fleurs du Coran. — Paris, 2001. — 94 p.
- Jean Anouilh. Antigone. — Paris, 2009. — 352 с.
- Laporte Michel. L'Empire entre les fleuves. — Paris, 2005. — 204 p.
- Maalouf A. Samarcande. Roman. — Editions Jean Claude Lattès, 1988. — 376 p.
- Донцова Д.А. 13 несчастий Геракла. — М., 2005. — 352 с.
- Ёкубов О. Танланган асарлар. — Т., 2005. — 447 б.
- Топильская Е.В. Белое, черное, алое... — М., 2003. — 448 с.
- Тоҳир Малик. Шайтанат. 2-жилд. — Т., 1998. — 720 б.
- Устинова Т.В. Дом-фантом. — М., 2005. — 352 с.

References

- Belyaeva, E. I. (1988). *Modal'nost' i pragmaticheskie aspekty direktivnykh rechevykh aktov v angliiskom yazyke* (Modality and pragmatic aspects of

directive speech acts in English), extended abstract of Doctor's thesis, Moscow, 33 p.

Lobanova, E. V. (2011). *Sredstva vyrazheniya pobuditel'nosti v angliiskom yazyke: kognitivno-ontologicheskii podkhod* (Means of expressing motivation in English: a cognitive-ontological approach), extended abstract of candidate's thesis, Samara, 24 p.

Mamatov, A. E. (2007). *Khorizhii til ta"limining kognitiv-pragmatik tamoiillari* (Cognitive-pragmatic tamoiills of Khorizhii language education), Samarkand, pp. 9–10.

Maslova, A. Yu. (2009). *Kommunikativno-semanticheskaya kategoriya pobuditel'nosti i ee realizatsiya v slavyanskikh yazykakh* (The communicative-semantic category of incentive and its implementation in Slavic languages (based on the material of the Serbian and Bulgarian languages in comparison with Russian)), extended abstract of candidate's thesis. Moscow, 40 p.

Nazari, Fatime. (2012). *Sposoby vyrazheniya pobuzhdeniya v sovremennom russskom yazyke* (Ways of expressing motivation in modern Russian language): Extended abstract of candidate's thesis, Moscow, 20 p.

Neustroev, K.S. (2008). *Sposoby vyrazheniya pobuzhdeniya i vozdeistviya (na materiale sovremennogo angliiskogo yazyka)* (Ways of expressing motivation and influence (based on the material of modern English)), Extended abstract of candidate's thesis. Rostov-na-Donu, 22 p.

Safarov, Sh. (2008). *Paralingvistika. Monografiya* (Paralinguistics. Monograph), Tashkent, 280 p.

Shvedova N.Yu. (1999). *Voprosy yazykoznaniya*, No. 1, pp. 3–16.

Surzhenko, E. V. (2012). *Vestnik BDU*, Ser. 4, No. 1, pp. 62–65.

Volkova, A.E. (2011). *Vestnik Volgogradskogo gos. un-ta*, ser 2, No. 1 (13), pp. 21–27.

Sources

Dontsova, D.A. (2005). *13 neschastii Gerakla* (13 misfortunes of Hercules). Moscow, 352 p.

Ekubov, O. (2005). *Tanlangan asarlar* (Selected works). Tashkent, 447 p.

Jean, Anouilh. (2009). *Antigone*, 352 p.

Laporte, Michel. (2005). *L'Empire entre les fleuves* (The Empire between the rivers), 204 p.

Maalouf, A. (1988). *Samarcande. Roman*, Editions Jean Claude Lattès, 376 p.

Schmitt, Éric-Emmanuel. (2001). *Monsieur Ibrahim et les Fleurs du Coran* (Mister Ibrahim and the Flowers of the Koran), 37 p.

Topil'skaya, E.V. (2003). *Beloe, chornoe, aloe...* (White, black, scarlet....). Moscow, 448 p.

Toxir, Malik. (1998). *Shaitanat* (Shaitanat). Volume 2. Tashkent, 720 p.

Ustinova, T. V. (2005). *Dom-fantom* (Phantom house). Moscow, 352 p.